

WIDE MEDICINAL PLANTS IN DAILY LIFE

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi,

Jizzakh State Pedagogical Institute, Teacher

Normuradova Oqiloy Shuhrat qizi,

2nd year student

Yahshilikova Umida Farkhod qizi,

2nd grade student

Oblakulova Mahliyo Nasriddin qizi,

Samarkand State University, 2nd year student

Abstract: Man has appeared, he always uses the blessings of nature to meet his needs. For consumption, fodder - hay, clothing - clothing, aesthetic pleasure, construction and other purposes. This means that nature and man are inextricably linked and inseparable.

KUNDALIK TURMUSHDA KENG TARQALGAN DORIVOR O`SIMLIKLAR

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi, Jizzax Davlat Pedagogika instituti, O`qituvchi

Normurodova O`g`iloy Shuhrat qizi, 2 – bosqich talabasi

Yaxshiliqova Umida Farxod qizi, 2 – bosqich talabasi

Oblaqulova Maxliyo Nasriddin qizi, Samarqand Davlat Universiteti, 2 – bosqich talabasi

Inson paydo bo`libdiki, u tabiat ne`matlaridan doimo o`z ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanib keladi. Iste`mol uchun, yem – hashak, kiyim – kechak, estetik huzurlanish, qurilish va boshqa maqsadlarda. Demak, tabiat bilan inson bir – biri bilan chambarchas bog`liq bo`lib, bir – biridan ayro tasavvur etib bo`lmash ekan.

Tabiatda eng keng tarqalgan olam bu o`simliklar dunyosidir. Ulardan million yillar mobaynida foydalanib kelinadi. Tabiat shunday mo`jizakor makonki, bir turdan bir maqsadda emas, balki bir vaqtning o`zida ko`plab maqsadlar yo`lida foydalanish mumkin. Biz faqat iste`mol qilish uchun foydalanayotgan o`simlikning qanday shifobaxshlik xususiyatlari borligini, yoki hech bir foydalanishga yaroqsiz deb o`ylagan zaharli o`simliklarning ham biz bilmagan sirlari, shifobaxshlik xususiyati, o`ziga xos tarkibi bor. Quyida shunday ajoyib xususiyatlarga ega o`simliklarning ba`zilarini keltirib o`tsak.

Bangidevona (*Datura l.*). Bangidevonaning ikki turi ma'lum: oddiy va meksika bangidevonasi.

Oddiy bangidevona (*D. stramonium L.*) – ituzumdoshlari (*Solanaceae*) oilasiga mansub, bo`yi 120 sm ga etadigan bir yillik o`t o`simlik. May oyining oxiridan sentyabrgacha gullab, meva beradi.

O`zbekistonda keng tarqalgan begona o`simlik. U, asosan, aholi yashaydigan joylarga yaqin yerlarda, yo`l yoqalarida, bog`larda va ekinzorlarning chetlarida o`sadi.

Tibbiyotda bangidevonaning bargidan foydalaniladi. O`simlik gullaganidan to sovuq tushguncha bargi yig`iladi va soya yerda quritiladi. Quritilgan barglar dorivor preparat tayyorlash uchun farmatsevtika zavodlariga yuboriladi.

Bangidevonaning hamma qismi zaharli.

Bangidevona bargining tarkibida 0,23 – 0,37% alkaloidlar, efir moyi, karotin, oshlovchi va boshqa moddalar bo`ladi. Giossiamin, atropin va skopolamin alkaloidlari mahsulotning asosiy ta`sir qiluvchi biologik faol moddalari hisoblanadi.

Bangidevonaning barglarida belladonna va mingdevonaga o`xshash alkaloidlar (giossiamin, atropin, skopolamin) topilgan.

Meksika bangidevonasini mevasidan olingan asosiy preparat skopolaminning gidrobromid tuzi hisoblanadi. Skopolamin o`z farmakologik ta`siriga ko`ra atropinga o`xshash, lekin markaziy asab sistemasiga tinchlantiruvchi ta`sir ko`r-satishi bilan undan farqlanadi, periferik ta`siri bo`yicha atropin kabitdir. O`simlik bargi spazmalistik dori sifatida qorin sanchiqlarida va mingdevona barglari bilan birga astmaga qarshi

qo'llaniladigan sigaretlar (astmotin) tarkibiga qo'shiladi.

Asosan, skopolamin gidrobromid (0,5 – 1 ml) ampula ko'rinishida ishlab chiqariladi. Aeron tabletkasi tarkibida skopolamin va giossiamin bor. Tabletka (0,0005 g) qusishga qarshi qo'llanadi.

Mingdevona (*Hyoscyamus l.*) – qora ming'devona (*H.niger L.*) ituzumdoshlari (*Solanaceae*) oilasiga mansub, ikki yillik o't o'simlik.

May oyidan sentyabrgacha gullab, meva beradi.

O'zbekistonda keng tarqalgan. U, asosan, aholi yashaydigan joylar yaqinidagi tashlandiq yerlarda, yo'l yoqalarida va ekinzorlarning atroflarida o'sadi.

Tibbiyotda qora mingdevonaning bargidan (ba'zan yer ustki qismidan) foydalaniladi. O'simlik gullaganda ildizoldi (bir yillik o'simlik) va poyadagi barg-lari yig'ilb olinadi. Ba'zan o'simlik gullaganda va undan keyin mingdevonaning yer ustki qismi o'rib olinadi va 2 sm uzunlikda qirqiladi. Yig'ilgan barg va yer ustki qismi soya yerda yoki quritgichlarda 40°S haroratda tez quritiladi. Quritilgan mahsulot farmatsevtika zavodlariga jo'natiladi.

Mingdevonaning hamma qismi zaharli ekanligini doimo esda tutish lozim.

Mingdevonaning hamma qismida (bargida, 0,045 – 0,1 %, poyasida 0,02 %, urug'ida 0,06 – 0,1 %, ildizida 0,15 – 0,17%) alkaloidlar bor.

Xuddi bangidevona singari uning tarkibida ham giossiamin, atropin va skopolamin alkaloidlar mahsulot tarkibidagi asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol birikmalardir. Mingdevona bargida turli alkaloidlar (giossiamin, skopolamin, atropin) mavjud. Shuning uchun o'simlik preparatlaring asosiy ta'siri atropinga o'xshaydi. Lekin ularning ishlatilishi chegaralangan. Asosan, o'simlik bargaining preparati – quruq ekstrakti belladonna preparatlari singari spazmalistik (silliq muskullar qisqarishini yo'qotish) va qorin sanchig'ini bartaraf etish maqsadida ishlatiladi. O'simlik bargidan tayyorlangan moy nevrologiyada, miozitda (mushaklar shamollashida), bod kasalligida badanga surtiladi.

Biz uchun o'zining manzarali ekanligi bilan shahar ko`rkiga ko`rk qo'shib turadigan mashhur manzarali daraxt – Tuxumak, Yapon sofora (*Sophora japonica L.*) – burchoqdoshlar (*Fabaceae*) oilasiga mansub, bo'yisi 5 – 15 m oralig'idagi, keng shox-shabbali daraxt.

Iyun–iyul oylarida gullab, mevasi avgust – sentyabrda pishib yetiladi.

O'zbekistonda ko'chalarda, bog'larda manzarali va dorivor o'simlik sifatida o'stiriladi. Vatani Xitoy va Yaponiya. Ko'pchilik mamlakatlarda ekiladi.

Tibbiyotda tuxumakning guli va mevasidan foydalaniladi. Gullari ochilmasdan oldin, yirik g'uncha holida, to'pgul – ro'vakdag'i pastki g'unchalar ochila boshlaganda, ro'vak qirqib olinadi va soya yerda yoki quritgichlarda 40 – 45 C haroratda quritiladi. Mevalari pishishi oldidan, ular yiriklashib, sershira, etli bo'lganda hamda urug'lari qota va qoraya boshlaganda yig'iladi va soya yerda yoki quritgichlarda 25 – 30 C haroratda quritiladi. Quritilgan mahsulotlardan rutin olish va turli dorivor preparatlari tayyorlash uchun farmatsevtika zavodlariga jo'natiladi.

Tuxumakning guli (g'unchalar) tarkibida 0,3 – 44 % gacha asosiy flavonoidi – rutin bo'ladi. G'uncha va mevasi tarkibida flavonoidlar (kversetin, kempferol, genistein va boshqalar), C vitamini, bo'yoq, oshlovchi va boshqa moddalar bo'ladi.

G'uncha va mevalarining asosiy ta'sir qiluvchi biologik faol moddalari uning tarkibidagi flavonoidlar hisoblanadi.

Tibbiyotda tuxumak daraxting gul g'unchasi va mevasidan foydalaniladi. Ular flavonoidlarga (ayniqsa, rutinga) boy. Shu bilan birga, uning tarkibida C vitamini va boshqa moddalar ham bor. Immunitetni ko'taradi, ishtahani ochadi, milklar bir butunligini ta'minlash kabi xususiyatlarga ega o'simlik sanaladi.

Meva nastoykasi yiringli va trofik yaralar va kuygan joylarni davolashda qo'llanadi.

Yana shunday manzarali daraxtlardan biri – kashtan (*Aesculus L.*)dir. Oddiy kashtan, soxta kashtan (*A. hippocastanum L.*) – Soxta kashtandoshlar (*Hippocastanaceae*) oilasiga mansub, keng shox – shabbali, balandligi 20 – 30 m ga yetadigan daraxt.

May–iyun oylarida gullab, sentyabr – oktyabrda mevasi pishib yetiladi.

O'zbekistonda manzarali daraxt sifatida ekiladi. Vatani Janubiy Bolgariya va Shimoliy Gretsya.

Tibbiyotda soxta kashtanning urug'i va bargidan foydalaniladi. Pishib yetilgan mevasidan urug'i ajratib

olinadi va ochiq havoda – quyoshda quritiladi. Yaxshi taraqqiy qilgan barglari yoz bo‘yi yig‘iladi va soya yerda quritiladi. Quritilgan urug‘ va barglar dorivor preparatlar tayyorlash uchun zavodlarga yuboriladi.

Soxta kashtan urug‘i tarkibida 8 – 10% saponinlar (essin va boshqalar), flavonoidlar, kumarinlar (eskulin va fraksin), B, C va K vitaminlari, kraxmal, yog‘, oqsil, oshlovchi va boshqa moddalar bo‘ladi. Bargi ham biologik faol moddalarga boy. Uning tarkibida flavonoidlar (kversitrin, kempferol va boshqalar), karotinoidlar va boshqa moddalar oor. Soxta kashtan urug‘ining asosiy ta’sir qiluvchi biologik faol moddalarini saponin – essin, vitaminlar, kumarinlar, barginiki uning tarkibidagi flavonoidlar hisoblanadi.

Tibbiyotda soxta kashtan daraxtining bargi va urug‘idan foydalaniladi. Ularning tarkibida turli glikozidlar, saponinlar, rutin va boshqa moddalar bor.

Xalq tabobatida daraxt po‘stlog‘idan tayyorlangan qaynatma turli kasalliklarda (bavosil, bronxit, bezgak, bod va boshqa) hamda bachadondan qon ketishida qo‘llaniladi.

Tibbiyotda soxta kashtan preparati – venostazin (tarkibida soxta kashtan mevasining ekstrakti va B vitaminini saqlaydi) bavosil, ateroskleroz va tromboflebit kasalliklarini davolashda qo‘llanilsa yaxshi samara beradi. Chunki uning ta’sirida vena qon tomirlari mustahkamlanadi, qonning ivishi natijasida tromblar hosil bo‘lishining oldi olinadi.

Bizga barglariga teginganda yoqimsiz hissiyat uyg‘otadigan, tanani kuchli qichishtiradigan Gazanda (*Urtica L.*) – ikki uyli gazanda, chayon gazanda (*U. dioica L.*) – gazandadoshlar (*Urticaceae*) oilasiga mansub ko‘p yillik, ikki uyli, achituvchi tuklar bilan qoplangan o‘t o‘simlik.

May – sentyabr oylarida gullab, meva beradi.

O‘zbekistonning ko‘pchilik viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida sernam yerlarda o‘sadi. Chet ellarda keng tarqalgan.

Tibbiyotda gazandaning bargidan foydalaniladi. O‘simlik gullaganda barglari terib olinadi (qo‘lqop kiyib) yoki tanasi urib so‘litiladi, so‘ngra bargi terib olinadi. O‘simlik so‘litiganda uning achituvchi xususiyati yo‘qoladi. Keyin terilgan barglar soya yerda quritiladi. Quritilgan mahsulot qog‘oz yoki ip qop va xaltachalarda quruq, salqin, toza va havo almashinib turadigan joylarda saqlanadi.

Gazanda bargi vitaminlarga boy mahsulot hisoblanadi. Uning tarkibida 1600 mg % gacha S, 4,52 – 7,58 mg % K va B₂ vitaminlari, 14 – 50 mg % karotinoidlar, pantoten va boshqa kislotalar bor. Vitaminlardan tashqari barg tarkibida flavonoidlar, 5 % gacha xlorofill, fenol kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor.

Gazanda bargining asosiy ta’sir qiluvchi biologik faol moddalarini vitaminlar, flavonoidlar va boshqa birikmalar kompleksi hisoblanadi.

Amaliyotda gazandaning bargidan foydalaniladi. Chunki uning tarkibida K, C, B₂ vitaminlari, karotin, ko‘p miqdorda xlorofill va boshqa moddalar bor.

Ibn Sino o‘simlik mevasini nafas qisish kasalligini davolashda, bargini esa qon oqishini to‘xtatuvchi va surgi dori sifatida qo‘llagan.

Xalq tabobatida o‘simlik bargidan tayyorlangan damlama, qaynatma va barg kukuni turli kasalliklarda (nafas qisish, ko‘krak og‘rig‘i, bod) burun, og‘izdan (milkdan) va bavosil xastaligida qon ketishini to‘xtatishda qo‘llaniladi.

O‘simlikning qon oqishini to‘xtatish ta’siri uning tarkibidagi K, C vitaminlarga bog‘liq. K vitamini qon ivish jarayoni uchun zarur bo‘lgan omil – protrombinning jigarda hosil bo‘lishini tezlashtiradi, C vitamini esa mayda qon tomirlar devorining o‘tkazuvchanligini kamaytiradi. Shu sababdan, gazanda bargidan tayyorlangan va olingan preparatlar (damlama, suyuq ekstrakt) tibbiyotda turli sabablar tufayli ichki organlardan (o‘pkadan, buyrakdan, bachadondan, oshqozon – ichakdan) qon ketishida keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, o‘simlik preparatlari ta’sirida bachadon mushaklarining qisqarishi, tonusi oshadi. Bu esa ushbu preparatlarni tug‘ruqdan keyingi davrda bachadonning qisqarishi va tonusning sustligi sababli qon oqishini to‘xtatish maqsadida qo‘llash o‘rinli ekanligini ko‘rsatadi.

Gazandaning suyuq ekstrakti kuniga 3 mahal ovqatdan 30 daqiqa oldin 25 – 30 tomchidan ichiladi.

O‘simlik bargi me‘da kasalliklarida hamda qon ketishini to‘xtatadigan yig‘ma – choylar tarkibiga kiradi.

Biz sevib iste` mol qiladigan Sho (shox) tut (*Morus nigra L.*) – Tuttoshlar (*Moraceae*) oilasiga mansub, 4 – 8 (10) m balandlikdagi, keng shox – shabbali daraxt.

Aprelda gullab, iyun – avgustda mevasi pishib yetiladi.

O‘zbekistonda dorivor o‘simplik sifatida ko‘plab ekiladi. Chet el davlatlarida ham ekib o‘stiriladi. Tabiiy holda o‘sishi aniqlanmagan.

Tabobatda shotutning mevasidan foydalaniladi. Tut mevasi to‘liq pishganda qoqib olinadi va ochiq havoda – quyoshda quritiladi yoki quritmay qo‘llaniladi. Qurigan mevalar toza, quruq, soya va havo kirib – chiqib turadigan joyda xaltalarda saqlanadi.

Shotut mevasi tarkibida ko‘p miqdorda qandlar, olma, limon va boshqa kislotalar, antotsianlar, pektin va boshqa moddalar bo‘ladi. Tut mevasining asosiy ta’sir qiluvchi biologik faol moddalari kislotalar va flavonoidlar (antotsianlar) hisoblanadi.

Tabobatda turli tutlar mevasidan ovqatning hazm bo‘lishini va qon ishlab chiqarishini yaxshilaydigan vosita sifatida foydalaniladi. Mevalari o‘tkir va surunkali jigar kasalliklarida (gepatitda), xoletsistitda, surunkali gastritda, oshqozon, 12 barmoq ichak yara kasalligida, entero–kolitlarda (ichak yallig‘lanishida) beriladi. Qariyalarda kuzatiladigan ich qotishida, bavosil kasalligida har kuni ovqatdan oldin tut mevasini iste’mol qilish buyuriladi.

Shotutning mevasi yoki undan tayyorlangan murabbosi, sharbati xalq tabobatida gipertoniya, qandli diabet kasalligini davolashda keng ishlatiladi. Shu maqsadda tutlarning, shu jumladan, shotutning bargi va po‘stlog‘idan tayyorlangan damlamalar ham qo‘llaniladi. Po‘stlog‘idan tayyorlangan qaynatma esa stomatologiyada (stomatit) va tomoq kasalliklarida (angina, faringit) og‘iz va tomoqni chayish uchun tavsija etiladi. Tut bargidan tayyorlangan bo‘tqa (kashitsa) teri kasalliklarida (turli yaralar, dermatit, qo‘tir, eshakem) jarohatlangan joylarga surtiladi.

Tibbiyotda yurak xastaliklarini (yurak poroki, miokard–odistrofiya) davolash uchun kuniga 200 – 300 g tut mevasini ovqatdan keyin iste’mol qilish ijobjiy natijalar beradi.

Xitoy tibbiyotida tut daraxtining po‘stlog‘i qandli diabetga qarshi ishlatiladigan yig‘malar tarkibiga kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, tabiatdagi har bir turning o`z o`rni va o`z xususiyati bor. Faqat ulardan qaysi paytda qaysi qismidan foydalanishni, tejamkorlikni bilishini o`zigma kifoyadir.

Foydalilanigan Adabiyotlar

1. Nabiev M. Sabzavot, rezavor mevalar va ziravorlar xosiyati. - T.: “Mehnat”, 1990. - 155 b.
2. Xojimato Q. Efir moyli o‘simpliklar. - T.: “Fan”, 1971.- 30 b.
3. Xamidov G‘. O‘zbekistonning asosiy asal-shirali o‘simpliklari. – Toshkent,1969.- 33 b.
4. Xamidov G‘. O‘zbekistonning asalli o‘simpliklari. - T.: “Fan”, 1977.- 47 b.
5. Xalmatov X.X. Dikorastuňc lekarstvennye rasteniya Uzbekistana. - T.: “Meditina”, 1964. - 276 s.
6. Xojimato Q. O‘zbekistonning vitaminli o‘simpliklari. - T.: “Fan”, 1973.
7. Xojimato Q. O‘zbekistonning xushbo‘y va xushta’m o‘simpliklari. - T.:“Fan”, 1992. - 81 b.